

THE RELEVANCE OF STUDYING UZBEK NATIONAL DANCE ART AT THE NATIONAL TELEVISION AND RADIO COMPANY OF UZBEKISTAN

Dilnoza Miralimova

Master's Student,

Toshkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

Tel: +998 90 960 81 99;

E-mail: dilnozamiralimova09@gmail.com

Scientific Supervisor: R.X. Sharipov, DSc. (Doctor of Philology)

Abstract: This article highlights issues related to the Uzbek national dance art on the Uzbekistan TV channel of the National Television and Radio Company of Uzbekistan.

Key words: history, national spirit, show, art, music, tradition, dance, sophistication, choreographer, ensemble, value.

O‘ZBEKISTON MILLIY TELERADIOKOMPANIYASIDA O‘ZBEK MILLIY RAQS SAN’ATINI TADQIQ ETISHNING DOLZARBLIGI

Dilnoza Miralimova, TDSHU 2-kurs

magistranti, Toshkent, O‘zbekiston

Tel: 90 960 81 99; e-mail: dilnozamiralimova09@gmail.com

Ilmiy rahbar: R.X. Sharipov, f.f.d (DSc),

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” telekanalida o‘zbek milliy raqs san’atiga oid masalalarning yoritilishi tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: tarix, milliy ruh, ko‘rsatuv, san’at, musiqa, urf-odat, raqs, nafosat, xoreograf, ansambl, qadriyat.

Annotatsiya: V dannoy state issledovani voprosi osvesheniya uzbekskogo natsionalnogo tantsevalnogo iskusstva na telekanale «Uzbekistan» Natsionalnoy teleradiokompanii Uzbekistana.

Klyuchevie slova: istoriya, natsionalniy dux, peredacha, iskusstvo, muzika, traditsiya, tanets, iziskannost, xoreograf, ansambl, sennost.

Bugungi globalashuv davrida o‘zbek milliy raqs san’atini o‘rganish, tadqiq etish va ommaviy axborot vositalari orqali yoritish

muhim masalalardan sanaladi. O'zbek raqs san'ati asrlar davomida xalqimizning urf-odatlarini, an'analarini, turmush tarzi haqida hikoya qilib kelayotgan so'zsiz muloqot vositasidir. Unga madaniy kommunikatsiya deb qaraydigan bo'lsak raqs san'atining nafaqat harakatlar majmui balki, mamlakatimizning boy tarixidan hikoya qiluvchi qadriyat ekaniga guvoh bo'lamiz. O'zbek raqslaridagi har bir harakatning o'z mazmun, mohiyati bor. Amerikalik raqqosa va tadqiqotchi Laurel Viktoriya Gray xonim o'zbek milliy raqs san'ati, undagi harakatlarning qanday ma'noni bildirishini tadqiq qilish maqsadida O'zbekistonda yashaydi va izlanishlari natijasini o'zining "Women's dance traditions of Uzbekistan" kitobida shunday yozadi. "Odamlarning bir-birlari bilan salomlashishi, kunlik muloqotlar, harakatlar, ayol-qizlarning choy uzatishi bularning bari raqs edi. Har bir mintaqaning, millatning o'ziga xosligi bor edi. Farg'ona boshqacha, Buxoro boshqacha, Xorazm ham o'zgacha. Ularning qanchalik bir-biriga bog'liq ekanini ko'rasiz"[6.] deydi Laurel Viktoriya xonim BBC News Uzbekda bergan intervyusida. Uning fikricha, o'zbek raqslari xalqimizning kundalik hayotidagi harakatlardan kelib chiqqan va san'atga aylangan. Bugungi kunda ana shu bebaho merosni o'rganish va kelajak avlodga etkazish dolzarb masalalar qatoridan o'rin egalladi. Ma'lumki o'zbek xalqi o'zining qadim an'analarini, qadriyatlari hamda bebaho madaniy meroslariga ega. Mustaqillik yillaridayoq tariximizni o'rganish, shu kungacha unutilgan qadriyatlarni yuzaga chiqarish ustuvor vazifa etib belgilandi. Xususan, o'zbek milliy raqs san'ati milliy qadriyat sifatida maydonga chiqdi.

Ma'lumotlarga ko'ra raqs san'atimiz juda qadim o'tmishga ega. Bu haqida raqsshunos olimi Lyubov Avdeyeva o'zining "Ozbek milliy raqsi tarixidan" deb nomlangan kitobida shunday yozadi. "Yuqori paleolit davriga oid eng qiziq ko'hna tasviriy san'at namunasi deb Surxondaryo viloyatining Zarautsoy dasarida joylashgan Zarautkamar g'ori devorlaridagi tasvirlarni olish mumkin. Ibtidoiy rassomlar chizgan syujetlar raqsning kelib chiqishi haqida hikoya qiluvchi ba'zi udumlar to'g'risida hikoya qiladi." [2,40.] O'zbek milliy raqs san'ati haqida keltirilgan ma'lumotlar qadimdan borligi ilmiy isbotlangan. "Markaziy Osiyo jumladan, O'zbekiston hududida topilgan qoyatosh tasvirlari va arxeologik topilmalar raqs san'atining juda qadimiyligidan guvohlik beradi. Zardo'shtiylarning muqaddas kitobi "Avesto" davridayoq o'yin va marosim harakatlari shakllanib, xalq raqsi hamda professional raqs - ikki yo'nalishda rivojlanishga kirishgani haqida tarixiy ma'lumotlar bor." [8,140.]

Uchinchi Renessans - mamlakatimizda madaniyat, ma'rifat sohalarini rivojlantirishga, ajdodlarimizdan qolgan meros turlarini saqlab qolish va o'rganishga keng imkon berdi. O'zbek milliy raqsimizni tadqiq qilgan G. Usmonova o'zining "Mustaqillik davri o'zbek raqs san'atining rivojlanish tamoyillari" monografiyasida bu haqida shunday fikr bildiradi. "Avlodlardan-avlodlarga oltin meros bo'lib kelayotgan ushbu san'atda o'zbek xalqining o'ziga xos madaniyati, odatlari, moddiy va tabiiy boyliklari, qolaversa, go'zal nafis ayollarimizning ichki dunyosi, go'zalligi hamda xalqimizning mehnat jarayonidagi harakatlari ifodalangan." [10,23.] Istiqlool tufayli ustozlar maktabini aslidagiday saqlab qolish, ular qoldirgan nodir raqs namunalarini yosh avlodga o'rgatish, xoreografiya sohasida zamonaviy bilimga ega baletmeysterlar faoliyatini qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor berildi. Uchinchi renessans raqs san'ati rivojida olib borilayotgan islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 fevraldagi "Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" hamda "Raqs san'ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi", 2020 yil 28 sentyabrdagi "Lazgi" xalqaro festivalini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi Qarorlari o'zbek raqs san'ati taraqqiyotida yangi islohotlar davrini boshlab berdi." [1] Hususan, 2020 yil 4 fevraldagi "Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida "O'zbekistonda raqs san'atini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijodiy maktablarga xos an'analarini, mohir baleymeysterlar, balet artistlari merosini tiklash, milliy raqs san'atining mumtoz va zamonaviy ijro namunalari "oltin fondi" ni yaratish, xalqimiz, hususan, yosh avlodni milliy raqs san'ati haqidagi nazariy va amaliy bilimlar bilan keng tanishtirish orqali ularning qalbi va ongida milliy o'zlikni anglash ajdodlar merosiga hurmat tuyg'usini, yuksak badiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish" vazifalari belgilangan." [1] O'zbek milliy raqs san'atida kechayotgan har qanday yangiliklar televideniye orqali ommaga yetib boradi. Shu ma'noda televideniye raqs san'atini targ'ibotchisi deyish mumkin.

O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi raqs san'atini ommalashtirish, uning tarixi, maktablari, ijrochilik uslublari va rivoji haqida katta auditoriyaga axborot berib kelyapti. Televideniye vazifalarini tadqiq etgan T.Qozoqboyev, M.Xudoyqulovlar "Jurnalistikaga kirish" kitobida yozishicha "Televideniye ommaviy

axborot vositalarining o'ziga xos alohida bir turidir. U o'z ijtimoiy vazifasini bajarishda, ijtimoiy hayotni aks ettirishda so'z bilan tasvir qo'shilmasiga erishadi, publitsistika bilan bir qatorda og'zaki nutq san'ati, teatr san'ati, tasvir, kino san'ati, musiqa san'ati, fotojurnalistika kabilardan keng foydalanadi. Shu boisdan uning jozibasi, kishilarni o'ziga tortish xususiyati jurnalistikaning boshqa turlariga qaraganda ortiqroqdir".[11,80.] Televideniyeining axborot etkazish bilan birga tarbiyachi vazifasi ham borligi uning zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi. Televideniye paydo bo'lgan dastlabki yillardayoq u omma orasida ma'rifat va ma'naviyat tarqatuvchi vositaga aylangan. O'zbek milliy raqs san'atini teleekran orqali namoyish qilish faqatgina o'zbek millatiga xos bo'lgan odatlar va an'analarni o'rganishga, yo'qolib borayotgan raqs turlarini asrashga xizmat qilgan. O'zbek milliy raqsini dunyoga tanitishda ham televideniyeining hissasi katta. OAV lari orasida ko'rish orqali qabul qilish imkoniyatining kengligi televideniyeiga katta auditoriyani qamrab olishga yordam beradi. Shu bilan birga raqs san'atini to'laligicha namoyish qilish boshqa OAV lariga xos emas. O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining telekanallari qatorida "O'zbekiston" telekanali "Assalom, O'zbekiston!" ko'rsatuvi xoreograf mutaxassislar, taniqli baletmeysterlar bilan turkum suhbatlar orqali raqs san'atining bugungi kunini yoritishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining mutaxassislari bilan hamkorlikda O'zbekiston xalq artisti Mukarrama Turg'unboyevaning ijodi, u qoldirgan raqs maktabi dasturning qator sonlarida yoritildi. Yosh raqs ustalarining ijrolari jonli efirlarda namoyish etilishi an'anaga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Lazgi" Xalqaro raqs festivalini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi qarori o'zbek milliy raqs san'ati tarixida yana bir muhim sahifani ochib berdi.[1] Festival doirasida "Assalom, O'zbekiston!" ko'rsatuvida "Lazgi" raqs san'atining tarixi, rivojlanish bosqichlari, raqs ustalari bilan tahliliy suhbatlar uyushtirildi. Festivalning to'gridan-to'g'ri translyatsiya qilinishi o'zbek milliy raqs san'ati tarixida katta voqea bo'ldi. Dasturning bir qancha sonlarida ishtirok etgan O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining o'qituvchi professorlari bilan ushbu san'atning ildizlari olis tarixdan guvohlik berishi haqida ma'lumotlar berildi. Qirg'izistonning Issiqko'l viloyatida bo'lib o'tgan "Turkiy dunyo adabiyoti, tili va tarixini o'rganishning dolzarb muammolari" mavzusida o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasida chop etilgan "Xorazm "Lazgi" raqsi tafsifi" monografiyasining

taqdimoti ko'rsatuvning 2024 yil 16 noyabr sonida teletomoshabinlarga tanishtirildi. Bu haqida dasturning ushbu sonida ishtirok etgan O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektori, professor Sh. To'xtasimov "Akademiya nafaqat yosh avlodga raqs san'atini o'rgatib kelyapti balki, raqs san'atidagi bo'shliqni to'ldirish maqsadida ilm qilyapti. Kitoblar, monografiyalar, o'quv - qo'llanmalar nashrdan chiqyapti. "Xorazm "Lazgi" tafsifi monografiyasi taqdimotining keng miqyosda o'tkazilishi raqs san'atiga bo'lgan e'tibor natijasi,"[4] ekanini tahlil qilib, kamdan-kam davlatlarda raqs ilm sifatida o'rganilishini ta'kidlaydi. Dasturning xuddi shu sonida mehmon bo'lgan O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi "San'at nazariyasi va tarixi" kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari doktori H. Hamroyeva raqs san'atiga oid adabiyotlarning kam ekanligini, shu jihatdan "Xorazm "Lazgi" tafsifi monografiyasi "Lazgi" raqs san'ati rivojida qimmatli manba bo'lganini izohladi. "Assalom, O'zbekiston!" ko'rsatuvi bugungi kunda raqs san'atiga oid chop etilayotgan adabiyotlarning taqdimotini ham o'tkazib kelyapti. 2022 yil 7 may sonida Ko'hna Xivada o'tkazilgan birinchi "Lazgi" festivali munosabati bilan nashr etilgan, ushbu qadim raqs turining tarixi haqida hikoya qiluvchi adabiyotlardan "O'zbek milliy raqs san'ati: terminlari tavsifi va tadqiqi", "Xorazm raqs san'ati", "Lazgi" turkumi lug'ati, "Ijod va ilm integratsiyasi" kitoblari ko'rsatuvda mutaxassislar bilan tahlil qilindi hamda ulardan o'rin olgan manbalar bo'yicha bahs munozaralar yuritildi.

YUNESKOning nomoddiy madaniy merosining representativ ro'yxatidan joy olgan "Lazgi" raqsi hozirda eng ko'p o'rganilayotgan noyob raqs turkumi bo'lib xorijlik san'atshunoslarning ham e'tiborida. Ushbu raqsning o'ziga xosligi haqida "Lazgi" raqsi tarixi va tasnifi" nomli kitobda G.Matyobubova, Sh.To'xtasimov, H.Hamroyeva "Afsonaviy "Lazgi" nafaqat raqs, balki, his-tuyg'ularni, dunyoni anglashni ifoda etishning o'ziga xos uslubi, odamlarning ruhiyatidir. Olimlarning fikricha, "Lazgi" harakatlarining o'ziga xos xususiyati – bu yarim bukilgan oyoqlar, elkalar va qo'llar salgina silkinishining ustunligi, qo'llarning "tebranadigan" harakatlari, oyoqlar bilan o'ziga xos harakatlar hamda bo'yin va boshning o'ngdan chapga va chapdan o'ngga mashhur harakatlanishidir" [9,82.] deb ta'rif beradi. "Lazgi" raqs san'atini YUNESKOning nomoddiy madaniy merosining representativ ro'yxatidan joy olishida O'zbekiston xalq artisti Gavhar Matyobubovaning hissasi katta. "Assalom, O'zbekiston!" ko'rsatuvining 2022 yil 7 may sonida "Lazgi" raqs san'atini yosh avlodga o'rgatib

kelayotgan Gavhar Matyoqubova faoliyati haqida O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi “San’at nazariyasi va tarixi” kafedrası dotsenti, filologoya fanlari doktori H.Hamroyeva bilan suhbat uyushtirildi. “Gavhar Matyoqubovanning yozishicha “Lazgi” raqsining ilk kurtaklari –Er yuzida odamzotning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Ya’ni, inson tomonidan olov kashf qilingach, kishilik jamiyatining ibtidoiy jamoa tuzumi bosqichida ushbu raqsning dastlabki elementlari yuzaga kelgan deyish mumkin. Qadimiy Amudaryo etaklarida yashagan xorazmiylar ushbu raqsning ijodkorlari sanaladi. Zardo‘shiylikning muqaddas kitobi “Avesto” bu borada ma’lumot beruvchi birlamchi yozma manba hisoblanadi”[12,145.] deb izoh berdi H. Hamroyeva.

Televideniye tarbiyaviy institut sifatida jamiyat hayotida alohida o‘rin egallaydi. Milliy qadriyatlarni namoyish qilish o‘sib kelayotgan avlodda ajdodlar merosiga qiziqish uyg‘otadi. “Assalom, O‘zbekiston!” tonggi dasturi bugun ham o‘zbek milliy raqs san’atini tadqiq va tahlil qilishda, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni yoritishda peshqadam. Ko‘rsatuv 31 yildan buyon katta auditoriyaga ma’naviyat, ma’rifat ulashib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqs san’ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.O‘zA, 2020 y, 4 fevral.
1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 fevraldagi “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. O‘zA, 04.02.2020.
1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Lazgi” Xalqaro raqs festivalini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risidagi” Qarori. O‘zA, 2020 yil 28 sentyabr.
2. Avdeyeva L. O‘zbek milliy raqsi tarixidan. M.Turg‘unboeva nomidagi “O‘zbekraqs” milliy raqs birlashmasi. Toshkent, 2001.
3. Abduxolliqov A., Karimov A. Telejurnalistika asoslari Toshkent, 2005.

4. “Assalom, O‘zbekiston!” ko‘rsatuvi 16.11. 2024
5. “Assalom, O‘zbekiston!” ko‘rsatuvi 07.05. 2022
6. BBC News Uzbek 17.12. 2024.
7. Tashkenbaev P. Xoreografiya bo‘yicha san’atshunoslik mutaxassisligi. Toshkent: Navro‘z, 2018.
8. “Xorazm “Lazgi” raqsi: madaniy diplomatiyani rivojlantirishning ilmiy–nazariy ma’naviy-ma’rifiy tamoyillari” II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Toshkent, 2024.
9. Matyoqubova. G., To‘xtasimov Sh., Hamroyeva H. “Lazgi” raqsi tarixi va tasnifi”. – Toshkent, 2022.
10. Usmonova G. Mustaqillik davri o‘zbek raqs san’atining rivojlanish tamoyillari. Monografiya – Toshkent, 2024.
11. Qozoqboyev T., Xudoyqulov M. Jurnalistikaga kirish. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018.
12. Qurbonova G., Bobojonova S. San’at va adabiyot: ilmiy – amaliy izlanishlar Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari. – Toshkent, 2022.